

IJTIMOYIY TARMOQLARNING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI, AVLODLAR O'RTASIDAGI ZIDDIYATLI MUNOSABATLARNI OLDINI OLISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8432725>

Xatamov Boburjon Qosimjon o'g'li

Mahalla va oila ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

+998912061364

xatamovboburjon@gmail.com

Annotatsiya

Bugun internet foydalanuvchilarining oshib borishi oilaviy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Oilada avlodlar, er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasida virtual olamdan samarali foydalanish masalasi yuzasidan munozaralar, ziddiyatlar bo'lmoqda. Jamiyatimizda ham ko'plab ota-onalar farzandining virtual olamga bog'lanib qolayotganidan xavotirda. Bu xavotirlar o'rinlimi yoki texnologiyalar haqida bilimga ega bo'lmagan ayrimlarning vahimasimi? Shular va virtual olam haqida dunyoda, O'zbekistonda bajarilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganib, mavjud statistik ma'lumotlar yordamida qilingan ish, xulosa va tavsiyalar.

Kalit so'zlar

internet, virtual olam, avlodlar o'rtasida ziddiyatlar, oilaviy munosabatlar, virtual olamdan samarali foydalanish.

Abstract

Today, the increase in the number of Internet users affects family relationships. In the family, there are discussions and conflicts between generations, spouses, parents and children regarding the issue of effective use of the virtual world. Many parents in our society are worried about their child's involvement in the virtual world. Are these concerns justified or just the panic of some people who do not have knowledge about technology? The work, conclusions and recommendations made by studying the scientific researches carried out in the world and in Uzbekistan about these and the virtual world, with the help of available statistical data.

Key words

Internet, virtual world, conflicts between generations, family relations, effective use of virtual world.

Bugungi kunda dunyo aholisining 5,3 milliarddan ziyodi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. O'zbekistonda ham internet foydalanuvchilari soni 31

milliondan oshdi. Shulardan 29,5 millioni mobil internet foydalanuvchilar ekanligi va 36 million aholi soniga nisbatan olinganida bu katta raqam ekanligi aks etadi¹⁸. Albatta bu O'zbekistonning zamonaviy kommunikatsiya vositalarini jadal rivojlantirayotgani bilan bevosita bog'liq. Bu miqdor shuningdek dunyoda texnologiyalar rivojlanishi, arzonlashishi va rivojlanayotgan davlatlar aholisi daromadi oshishi bilan ham o'sib boryotganligini ifodalaydi. 2022-yil oxiriga kelib dunyodagi internet foydalanuvchilari dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Bunday ma'lumotlar xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi hisobotida keltirilgan. "2019-yilda dunyo aholisining 54 foizi internetdan foydalangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 66 foizga yetdi, bu 5,3 milliard kishini anglatadi", deyiladi hisobotda.

Ta'kidlanishicha, koronavirus pandemiyasi boshlangandan so'ng, keng polosali infratuzilmaga ulanish ish, o'qish va asosiy xizmatlardan foydalanish uchun hayotiy zaruratga aylanganda foydalanuvchilar soni faol o'sishni boshlagan. 2020-yilda foydalanuvchilar soni 10 foizga o'sdi, bu so'nggi o'n yillikdagi eng katta o'sish bo'ldi¹⁹.

Smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlardan bugungi kunda yoshlar ommaviy tarzda foydalanmoqda. Qo'lida, uyida shaxsiy komyuteri, smartfonlari bo'lgan voyaga yetmaganlarning ota-onalari bilan munosabatlarida foydalanish vaqti bo'yicha va shu kabi smartfondan foydalanish yuzasidan qadriyatlar to'qnashuvi ziddiyatlarga aylanib muammo darajasiga yetdi. Ko'plab ota-onalar, bobo-buvilar yoshlarning smartfonlarga qaram bo'lib qolayotganlaridan nolishmoqda. Albatta bu haqiqat, bugungi kun yoshlari o'z bo'sh vaqtlarining nisbatan ko'proq qismini (albatta o'z shaxsiy smartfoni bo'lsa) mobil vositalar ekranlariga qarab o'tkazmoqdalar. Albatta bu ko'rsatkichni maksimallashtirishdan yiroqmiz. Har bir davr yoshlarining o'z davrida ommalashgan, bo'sh vaqt o'tkazish vositasi bo'ladi. Masalan, o'tmishda bolalar turli harakatli o'yinlar ommalashgan, radio chiqqanida radio, televizor chiqqanida televizor, o'yin avtomatlari chiqqan vaqti shu kabi vositalar ommalashgan. Albatta bularning chiqishi harakatli o'yinlarga bo'lgan e'tiborni yo'qotib yubormadi. Lekin ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam o'yinlari chiqishi harakatli o'yinlarga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada pasaytirdi. Ba'zi ota-onalar bundan hursand ham bo'lishgandir. Sababi oldin ko'chada turli tashqi xavflar ostida, ota-ona ko'zidan uzoqda o'ynayotgan bolalar endi uyda, o'z xonasida mashinalar urib yuborishi, begona odamlar tomonidan tazyiqlar, bolalar bilan mushtlashishlar, turli harakatli o'yinlardan orttirilishi

¹⁸ <https://mitc.uz/uz/news/view/4248>

¹⁹ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2022-yil-oxirigacha-qancha-odam-internetdan-foydalanishi-malum-qilindi>

mumkin bo'lgan jarohatlardan holi holda kattalarning shundoqqina yonidagi xonada smartfoniga tikilib o'yin o'ynayapti, ijtimoiy tarmoqda vaqt o'tkazyapti. Bu holat ayrim ota-onalar uchun ayni muddao. Ammo umumiy olganda katta avlod vakillarida yosh avlod vakillarining smartfon va virtual olam vositalaridan foydalanishiga nisbatan qarashlari salbiyligini eshitib qolamiz. Lekin yoshlarning internetdan foydalanishlari agar me'yorda va yaxshi maqsadda bo'ladigan bo'lsa bunda ortiqcha xavotirga o'rin yo'q. Sababi virtual olam oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini yaxshilaydigan, bir-birlaridan uzoqda bo'lgan vaqtlarida doimiy aloqani ta'minlaydigan²⁰, oilaviy muammolarni muhokama qiladigan makonga aylanganini ham tan olish kerak. Shunday ijobiy tomonlari ham bor. Bu oila a'zolarini, nihoyat, ushbu yangi texnologiyalarni oilaning ijobiy faoliyati va munosabatlariga tahdid sifatida emas, balki oilaning birlashishi, moslashuvchanligi, o'zaro ta'siri, rejalashtirish va ochiq muloqot uchun imkoniyatlar sifatida qabul qilishi mumkin. Oilada jamoaviy samaradorlikka qo'shimcha ravishda, bunday ijobiy idrok oila a'zolari o'rtasida ochiq muloqotni yanada rivojlantirishi mumkin, chunki agar ijtimoiy media imkoniyatlar, foydali vositalar sifatida qabul qilinsa, ular oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni saqlash va yaxshilashning qo'shimcha usullarini taklif qilishlari mumkin (masalan, xohlagan vaqtda masofadan qat'iy nazar aloqada bo'lish, real vaqt rejimida rejalar tuzish, munozaralarni rag'batlantirish kabi).

Virtual olam vositalari mas'uliyat bilan va ongli ravishda foydalanilganda, ijtimoiy media oilaviy munosabatlarda manba va qo'shimcha ta'lim qiymatini ko'rsatishi mumkin, bu ota-onalarga farzandlari bilan munosabatlarni mustahkamlashi mumkin bo'lgan yangi ta'lim va tarbiya maydonidan bo'lishi mumkin. Bu, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ota-onalar va bolalar o'rtasida yanada ochiqroq muloqot qilish imkoniyatlarini yanada oshirishi, o'zaro yaqinroq bo'lish va muhim, qiziqarli narsalarni baham ko'rish imkoniyatlarini berishi bilan ahamiyatli²¹.

Dunyoda internet foydalanuvchilari kuniga o'rtacha 7 soatdan ko'proq vaqtini virtual olamga sarflamoqdalar. Shu soatlarda deyarli 11 soatlik media-kontentni to'ldirishga muvaffaq bo'lishmoqda²². Virtual olamdan foydalanuvchi oilalar ulardan birgalikda kulish, o'zaro xabardor bo'lish, videoaloqa o'rnatish, ma'lum mavzularni muhokama qilish, muhim voqealarni eslash yoki keyinchalik eslash

²⁰https://www.researchgate.net/publication/348035224_Family_Relations_after_the_Emergence_of_Social_Media_A_Comparative_Analysis_of_Single-Family_and_Joint_Family_Systems

²¹Coyne S.M., Padilla-Walker L.M., Fraser A.M., Fellows K., Day R.D. "Media Time= Family Time" Positive Media Use in Families with Adolescents. J. Adolesc. Res. 2014;29:663-688. doi: 10.1177/0743558414538316.

²²Kaiser Family Foundation, 2010

uchun tarmoqqa yuklash uchun vosita sifatida foydalanishganini aniqladi. O'smirlik davrida virtual olam vositalaridan foydalanish odatda salbiy qarash shakllanib qolgan ammo, Sarah M. Coyne, Laura M. Padilla-Uolkerlar tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, o'smirlar va ularning ota-onalari ommaviy axborot vositalaridan turli ijobiy maqsadlarda foydalanmoqdalar. Ular ommaviy axborot vositalari, albatta, salbiy, izolyatsiya qiluvchi usullarda qo'llanilishi va hatto oilaviy munosabatlarni buzishi mumkinligini tan olishlari bilan birgalikda, tadqiqotlarida olgan natijalari o'smirlari bor bo'lgan oilalar ko'pincha virtual olamdan yaxshi maqsadda foydalanishlarini ko'rsatdi²³.

Lekin internet, ijtimoiy tarmoqlarning yuqoridagi ijobiy tomonlarini e'tirof etgan holda ular yordamida o'smirlar o'zlarining virtual olamlarini yaratdilar va u yerda ko'p vaqtlarini sarflamoqdalar. Internetga, virtual olamga, video o'yinlarga qaramlik jamiyat ichida oshib ketmoqda. Jamiyatshunos Sherri Terkl "Ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlar insoniylikni barbod qilayotgan ahmoqlikning yangi shaklidir²⁴" - deydi. Virtual olamdagi jismoniy uzoq "yaqin" do'stlar bilan ko'p vaqt oluvchi suhbatlashishlar, bahs-munozaralar o'smirlarning haqiqiy hayotdagi do'stlaridan hattoki oilasidan ham uzoqlashtirmoqda. Farzandlarining foydali ish bilan shug'ullanish o'rniga turli insonlar bilan chatlashib o'tirishi, bahslashishi, aldanishlari, turli yomon so'zlarni ishlata boshlaganlari, turli yomon qiliqlar qilib virtual olamga ularni chiqarishi ota-onalarni tashvishga solmoqda. Bu narsalar ba'zi oilalarda avlodlar o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda. Oilalarning parchalanishi, ular o'rtasidagi tushunmovchilik yorig'ini katta jarlikka aylanib ketishida virtual olamning o'ziga xos o'rne bor. Virtual olamda tanishuv saytlarining ko'payishi, ularga bo'lgan talabning yuqoriligi ham ko'pchilik haqiqiy hayotdagi tanishuvlardan virtual tanishuvlarni afzal ko'ra boshlaganini bildiradi. Xitoyda virtual tanishuv orqali nikohlangan oilalarning ulushi yildan yilga ortib bormoqda ekan. Bu virtual tanishuvlardan ko'pi o'smirlarning vaqt o'tkazish uchun ermagiga aylanib qolayotgani ham bor gap. Ko'plab yoshlar bu tanishuvlardan aldanib, ruhiy tushkunlikka tushib qolayotgani ham bor. Tanishuv guruhlarida ko'plab o'smirlarning vaqtlarini be'mani suhbatlarga sarflayotgan vaqtlarini ko'rib, eshitib ichingizda shuncha vaqtga qancha ilmlar olish, qanday ishlar qilish mumkinligi haqida o'ylab yurakni achinish tuyg'usi egallaydi. Buni bilan ota-ona, bobo-buvilarni holini tasavvur qilavering. Bir marta, ikki marta aytadi... keyin asabiylashib qo'pol munosabatda ham bo'lishadi. Internetga,

²³ Coyne S.M., Padilla-Walker L.M., Fraser A.M., Fellows K., Day R.D. "Media Time= Family Time" Positive Media Use in Families with Adolescents. J. Adolesc. Res. 2014;29:663-688. doi: 10.1177/0743558414538316.

²⁴ Alone together (Birgalikdagi yolg'izlik)..., Sherri Terkl;

smartfon va komyuterlarga butunlay ta'qiqlar qo'yishishadi. Lekin tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlardan favqulodda vaziyatlarda kimlarga murojaat qilishlari mumkinligi haqida so'ralganda, ko'proq ularning yagona manbasi oilasi ekanligini aytishadi²⁵. Virtual olamdagi tanishuvlar ikki jins vakiliga ham o'zaro munosabatlarda ko'plab tavakkal qilishlariga va buning natijasida aldanish holatlari ham ko'p bo'ladi. Bu o'ta shaxsiy masala bo'lganligi sabab, hech kim aldanganligini aytishni istamasligi, ota-onasidan dakki eshitishdan qo'rqib ham hech kinga oshkor qilishmaydi. Virtual olamdagi tanishuvlarga ko'pchilik jiddiy munosabatda bo'lmaydi va bu virtual olam orqali tanishib oila qurganlar yoki "sevishib" yurganlarning biri ikkinchisini oson tashlab ketishiga, ajrashishlarga olib kelmoqda. "Sankt-Peterburg tahlil markazi" mutaxassislari o'tkazgan taqdiqoqt natijalariga ko'ra, ajrashgan oilalarning 15 foizi ijtimoiy tarmoqlarni sabab qilib ko'rsatmoqda²⁶.

Virtual olamdagi turli firibgarliklar, aldovlarga asosan har narsaga qiziquvchan bo'lgan o'smirlar va texnologiyalarni yaxshi tushunmaydigan qariyalar ko'p jabrlanishi isbotlandi. Haqiqiy hayotda kimdir uyimiz eshigini taqillatib biz haqimizdagi shaxsiy ma'lumotlarimizni, qiziqishlarimizni so'rasa unga bu shaxsiy ma'lumotlarimizni aytib ketavermaymiz. Uning kimligini, nima maqsadda so'rayotganiligini bilgachgina lozim ko'rsak aytamiz bo'lmasa ko'p holatlarda shaxsiy ma'lumotlar aytilmaydi. Lekin ko'p o'smirlar o'z shaxsiy ma'lumotlari, oilaviy sirlarni virtual olamdagi "do'stlari"ga aytib berishlari buni ortidan firibgarlik, aldov jabrlanuvchisiga aylanib qolayotgan holatlari ham ko'p.

Virtual olamdan samarali foydalanish uchun o'smirlar va ularning oila a'zolari quyidagilarga e'tibor berishlari zarur.

Har bir oila a'zosi o'zaro go'zal munosabatda bo'lishlari - bu ularning bir-birlariga o'zaro ishonchni, mehrni musthkamlaydi. Oila a'zolaridan: akasidan, ota-onasidan, opasidan mehr ko'rgan o'smir e'tiborni virtual olamdan qidirmaydi. Moboda kimdir bilan tanishsa uni oila a'zolaridan sir tutmaydi, natijada aldov qurboni bo'lish ehtimoli keskin kamayadi;

Oila a'zolari bir-birlarining qiziqishlarini hurmat qilishlari - bu bir-birlarining shaxsiy, kasbiy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona o'zi erisholmagan qaysidir sohadagi armonini farzandim shu soha vakili bo'ladi deb farzandning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olmaslik bolaning shaxsiyatini o'ldiradi va hech qaysi sohada muvaffaqiyatga erishmasligiga sabab bo'ladi;

²⁵ Alone together (Birgalikdagi yolg'izlik)..., Sherri Terkl, 280-b.

²⁶ Internetdagi tahdidlardan himoya..., M.Amin Yahyo, 2016-y. T.: Movarounnahr. 162-b.

Oila a'zolarinig har bir a'zosi o'zlarining bo'sh vaqtlarini iloji boricha virtual olamdan boshqa mashg'ulotlarga e'tibor berishi - bu bilan oilada voyaga yetayotgan o'smir oilada nima qadrlanayotgan bo'lsa shunarsani ko'proq qadrlaydigan bo'ladi. "Qush inida ko'rganini qiladi" maqoli ham bejiz emas, bugun o'z farzandining virtual olamga qaram bo'lib qolganidan noliyotgan ota-onalarning o'zi virtual olamdan faol foydalanishini kuzatish mumkin. Kitobxon oiladan kitoblarga qiziqadigan farzand, mashinalarga qiziqadigan oiladan mashinalarga qiziqadigan farzand, internetga qiziqadigan oiladan internetga qiziqadigan farzandlar yetishib chiqadi;

Ota-onalar farzandlarining bo'sh vaqtlarini ular qiziqadigan mashg'ulotlar, to'garaklar bilan band qilishi - bu ota-onadan ko'p mablag' talab qiladi lekin ota-bobolarimizdan qolgan ustoz-shogirdlik an'alarini esdan chiqarmaslik kerak. Bunda farzandingizni qaysidir hunar egasiga shogird qilib bering. O'smir qaysidir sohada o'zini yaxshi his qilib, qaysidir hunarni yaxshi uddalay olsa bu orqali uning bo'sh vaqti mazmunli, jamiyat uchun foydali bo'lishi bilan birgalikda shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi;

Virtual olam vositalaridan foydalanishini nazorat qilish va foydalanish vaqtini chegaralab qo'yish - bu bilan bolaning virtual olamga qaram bo'lib qolishini oldi olinadi, bola o'zining nazoratda ekanligini his qilib turadi va turli yomon saytlarga, guruhlariga kirmaydi;

Virtual olam vositalari(ijtimoiy tarmoqlar, internet qidiruv tizimlari, virtual video o'yinlar)ning xavfsizlik sozlamalari, ota-ona nazorati kabi vazifalaridan foydalanib o'smirning virtual olamdan samarali foydalanishini nazorat qilish - bu oraqli siz virtual olam vositalaridan ommalashgan zamonda uning foydali jihatlari ham borligini hisobga olib ma'lum me'yoriy vaqt oralig'ida farzandingizga undan nisbatan xavfsiz foydalanishga sharoit yaratib bergan bo'lasiz;

O'smirning do'stlari, tengdoshlari, qo'shni o'smirlar, sinfdoshlari nima bilan shug'ullanayotganidan doim xabardor bo'lib turish - bu orqali siz o'smirlar orasida nimalar ommalashayotgani, ulardan nimalar foydali nimalar esa zararli ekanligini aniqlab, zararli oqibatlarini oldini olishingiz mumkin. "Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi"deb bejiz aytishmagan. "Biz qanchalik ko'p salbiy illatlarni eslatuvchi, gapiruvchi, ko'zimiz tushuvchi joylarda bo'lsak o'sha salbiy odatni qilish ehtimoli darajasi oshib boraveradi"²⁷. Shuning uchun biz oatrofimizdagi odamlarni tarbiyalash uchun avvalo o'zimizning atrofimizdagi yomon insonlar guruhini yaxshi insonlar guruhiga o'zgartirishimiz zarur;

²⁷ Atom odatlar..., Jeyms Klir Asaxiy nashriyoti. 2023-yil.

Maktab jamoasi, pedagoglarning ham bir necha vazifalari mavjud. Odatda, o'smir ota-onasi oldida mo'min-qobil bo'lib oladi. Uning asl qiyofasi jamiyatda, sinfdoshlari bilan munosabatlarida ko'rinadi. Oiladan tashqarida maktab darslari vaqtidagi harakatlari haqida pedagoglar qayg'urishi, bolaga ta'lim bilan birgalikda tarbiya ham berishlari lozim bo'ladi. O'smirdagi salbiy va ijobiy o'zgarishlar haqida ularning ota-onasini doimiy xabardor qilib turishlari lozim. Pedagog shaxsi o'smirning hayotini to'g'ri yo'lga yo'naltirib uning hayotida chuqur iz qoldirishi mumkin;

Qo'shnilar, qarindoshlar ham shaxs rivojlanishi, tarbiyalanishida muhim agentlar hisoblanadilar. Ota-ona doim ham o'z farzandlarini nazorat qilib yurishga vaqtlari, imkoniyatlari yetmasligi mumkin. O'smirlarning virtual olamdagi profillarida bo'ladimi, ko'cha-kuydami atrofidagi insonlar nazoratida bo'lishi uning turli yomon guruhlar ta'siridan, odobsiz harakatlardan saqlaydi;

O'smirlarning virtual olamdan samarali foydalanishida milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim. Milliy qadriyatlarimizga kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tanimagan insonlarni sizlab hurmat ko'rsatish, ayol-qizlarga go'zal munosabatda bo'lish, Islom dini kabi qadriyatlar muhim. Shularning ichida ayniqsa din omilining salmog'i katta. Mamlakatimiz aholisining 90 foizidan ortig'ini musulmonlar tashkil qiladi. Islom dinida virtual olamdagi qilinadigan barcha salbiy illatlar (firibgarlik, yolg'on, g'iybat, tuhmat, bo'hton, masxara qilish, chaqimchilik, o'zganing sirini oshkor qilish, ikkiyuzlamachilik, o'g'rilik, jinsiga munosib bo'lmagan gaplar gapirish, nomahramlarga gapirish, qarash, avratlarini ko'rsatish, vaqtini behuda ishlarga sarflashkabi) keskin qoralanadi. Qilayotgan har bir ishini Alloh ko'rib turganini, farishtalar amal daftariga yozayotganini har bir gunohi uchun oxiratda alamli azobga duch kelishini bilgan o'smir o'zini yuqoridagi kabi illatlardan saqlaydi. Alloh taolo bunday deydi: "(Alloh) ko'zlarning xiyonatini (qarash man etilgan narsaga og'rincha ko'z tashlanishini) ham, dillar yashiradigan narsalarni (yomon niyatlarini) ham bilur" ("G'ofir" surasi 19-oyat)²⁸. Oilasida islom dini va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan o'smir o'zining chegaralab berilgan vaqtini yaxshi ishlarga sarflashga harakat qiladi. Farzand oq qog'oz kabidir Agar murabbiy yoki ota-ona farzandiga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Rasuli akram sollalohu alayhi vasallam marhamat qilganlarki, har

²⁸ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014-y

bir tug'ildigan bola fitratda tug'iladi, ya'ni har bir chaqaloq pokiza bo'ladi, u oq qog'oz kabidir²⁹.

Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ham virtual olamdan o'smirlarni samarali foydalanishlari uchun qilinadigan ishlar yetarlicha. Jamiyatimiz ko'p vakillarining virtual olamda profillari mavjud. Ular ham virtual olamda qandaydir salbiy mazmundagi saytlar, guruhlariga duch keladigan bo'lsalar ularga befarq bo'lmay ular haqida tegishli tashkilot tizim xodimlariga ularning faoliyatini salbiy oqibatlarini tushuntirib guruhlarini yopish, faoliyatlarini ta'qiqlashga harakat qilishlari, ularga nisbatan jamoaviy murossasiz bo'lishlari kerak. Shuningdekhar bir jamiyat o'z kelajak avlodi tarbiyasi uchun foydali media kontentlarni virtual olamga joylab borishlari, ko'paytirishlari lozim.

Davlatimiz tomonidan virtual olamdagi, ijtimoiy tarmoqlardagi huquqbuzarliklarga e'tiborli bo'lish, kiberjinoyatlarni jazosiz qoldirmaslik, o'smirlar uchun foydali zakovat, kitobxonlik, sport, fan, hunar-o'quv markazlari faoliyatini rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash lozim. Yoshlarga ish o'rinlarini yaratib, adolatli raqobatda mutaxassis bo'lishlariga sharoit yaratib berish.

Oila jamiyatning boshlang'ich va muhim bo'gini. Farzand tarbiyalash avvalo uning dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan ota-onalar ma'suliyatidagi ish ekanligini har bir ota-ona yodida tutishi lozim. Bugungi globallashgan dunyoda ba'zi biznesmenlar virtual olamning yosh avlod tarbiyasiga salbiy zararlari borligini bila turib, pul toppish maqsadidagi insonlar e'tibori va vaqtini ko'proq o'z dasturlarida bo'lishi uchun tinmay harakat qilishmoqda. "Agar siz mahsulot uchun pul to'lamasangiz, siz mahsulotsiz". Ko'pchilik o'ylaydiki, "Oh, Google bu shunchaki qidiruv maydoni, Facebook esa mening do'stlarim nima qilayotgani va ularning fotosuratlarini ko'rish uchun joy". Ammo ular bizning e'tiborimiz uchun raqobatlashayotganini ko'pchilik tushunmaydi. Bilasizki, Facebook, Snapchat, Twitter, Instagram, YouTube, shunga o'xshash kompaniyalar, ularning biznes modeli odamlarni ekranga jalb qilishdir. Internetda biz bepul deb hisoblaydigan barcha xizmatlar mavjud, ammo ular bepul emas. Ular reklama beruvchilar tomonidan to'lanadi. Nima uchun reklama beruvchilar bu kompaniyalarga pul to'laydilar? Ular o'z reklamalarini bizga ko'rsatish evaziga pul to'laydilar. Biz mahsulotmiz. Bizning e'tiborimiz reklama beruvchilarga sotilayotgan mahsulotdir³⁰", biz virtual olamda qancha ko'p vaqt o'tkazsak, xabarlarga izoh qoldirsak, ularni do'stlarimizga ulashsak ular shunchalik ko'p foyda ko'radilar.

²⁹ <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/18/gozal-tarbiyadan-yaxshiroq-meros-yoq-islomda-farzand-tarbiyasi-haqida>

³⁰ Ijtimoiy dilemma hujjatli filmidan parcha.

Bizning nima ko'rayotganimiz, yoshlar ongiga, axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan xabarlarining katta qismi ularning e'tiboridan chetda qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlar inson hayotida ularni dunyo hamjamiyatiga yaqinlashtirishda ijobiy rol o'ynasa-da, ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanish inson ruhiy farovonligiga va o'z oila a'zolari bilan munosabatlariga salbiy ta'siri borligi³¹ haqida ilmiy tadqiqotlar isbotlagan. Virtual olam oila a'zolarining birgalikdagi tadbirlarida o'zaro suhbatlashishlariga xalaqit beruvchi vosita bo'lib ham xizmat qilmoqda.

Xulosa, virtual olamning hozirgi dunyo va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini e'tirof etgan holda uning nafaqat oilaning yosh avlod vakillariga balki oilaning barcha a'zolariga, ularning o'zaro ahil va muhim ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'siri bor. Virtual olam vositalaridan samarali va me'yorida foydalanish, uning zararli ta'sirlaridan ogoh bo'lish har bir bobo-buvi, ota-ona, farzandlar va jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim. Virtual olamdagi munosabatlar kengayib, haqiqiy hayotdagi munosabatlar torayishi insonlarni ijtimoiy izolyatsiyaga solib qo'yadi. Virtual olamda qo'yilgan o'z do'stlarining go'zal oilaviy munosabatlari tasvirlangan media mahsulotlarini ko'rib, o'z oilaviy holatiga solishtirib va o'z oilasining bunchalik "baxtli" emasligidan depressiyaga tushgan, ajralib ketishgacha borgan oilalar borligini tadqiqotlar isbotladi. Shuningdek, virtual olamdan samarali, to'g'ri foydalanish oilaviy munosabatlarni yaxshilashga ham xizmat qilishi isbotlandi. Avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar esa har bir davrga xos xususiyat ekanligini ham katta avlod vakillari sedan chiqarmasliklari zarurligi, har bir davr avlodining o'z qadriyatlarini mavjudligi va bu qadriyatlar salbiy oqibatlar keltirib chiqarmasa yosh avlod qadriyatlarini hurmat ham qilish zarur. Oiladagi o'zaro samimiy suhbatlashish uchun alohida vaqt tayinlanishi va bu suhbat virtual olam vositalarisiz (uzoqdagi oila a'zosi bilan suhbatlashish bundan mustasno) suhbatlashish avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini olishda muhim o'ringa ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Amin Yahyo, "Internet tahdidlaridan himoya", T.: Movarounnahr nashriyoti 2016-y.

2. Sherri Terkl, "Alone together" (Birgalikdagi yolg'izlik), T.: Basic Books, A Member of the Perseus Books Group., New York, 2011-y.

³¹https://www.researchgate.net/publication/348035224_Family_Relations_after_the_Emergence_of_Social_Media_A_Comparative_Analysis_of_Single-Family_and_Joint_Family_Systems

3. Jeyms Klir, "Atom odatlar", T.: Asaxiy nashriyoti. 2023-y.
4. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur -T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014-y.
5. <https://mitc.uz/uz/news/view/4248>
6. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2022-yil-oxirigacha-qancha-odam-internetdan-foydalanishi-malum-qilindi> .
7. https://www.researchgate.net/publication/348035224_Family_Relations_after_the_Emergence_of_Social_Media_A_Comparative_Analysis_of_Single-Family_and_Joint_Family_Systems
8. Coyne S.M., Padilla-Walker L.M., Fraser A.M., Fellows K., Day R.D. "Media Time= Family Time" Positive Media Use in Families with Adolescents. J. Adolesc. Res. 2014;29:663–688. doi: 10.1177/0743558414538316
9. Kaiser Family Foundation, 2010.
10. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/18/gozal-tarbiyadan-yaxshiroq-meros-yoq-islomda-farzand-tarbiyasi-haqida>
11. https://www.researchgate.net/publication/348035224_Family_Relations_after_the_Emergence_of_Social_Media_A_Comparative_Analysis_of_Single-Family_and_Joint_Family_Systems
12. Social dilemma (Ijtimoiy dilemma) hujjatli filmi.